



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 16-23 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUD SOLIQ SALOHIYATI VA UNI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI



Umidjon Ibragimovich Ergashev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali assistenti

e-mail: umidergashev339@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy soliq salohiyatining mohiyati, baholash usullari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada hududiy soliq salohiyatini baholashda iqtisodiy rivojlanish darajasi, soliq yukining o'zgarishi, fiskal siyosat mexanizmlari va soliq organlarining samaradorligi alohida e'tiborga olingan. Shu asosda, mahalliy byudjetlarning barqarorligi va hududlararo moliyaviy tenglikni ta'minlashda soliq salohiyatini chuqur tahlil qilish va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, hududiy fiskal siyosat, byudjetlararo munosabatlar, soliq yuki, moliyaviy resurs, soliq siyosati.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность регионального налогового потенциала, методы его оценки и их применение в условиях Узбекистана. Особое внимание в статье уделено уровню экономического развития, изменению налоговой нагрузки, механизмам фискальной политики и эффективности деятельности налоговых органов при оценке регионального налогового потенциала. На этой основе обосновывается необходимость глубокого анализа налогового потенциала и совершенствования механизмов его управления для обеспечения устойчивости местных бюджетов и межрегионального финансового равенства.

Ключевые слова: налоговый потенциал, региональная фискальная политика, межбюджетные отношения, налоговая нагрузка, финансовый ресурс, налоговая политика.

Abstract. This article examines the essence of regional tax potential, methods of its assessment and their application in the context of Uzbekistan. Particular attention is paid to the level of economic development, changes in the tax burden, mechanisms of fiscal policy and the effectiveness of tax authorities in assessing regional tax potential. On this basis, the need for an in-depth analysis of tax potential and improvement of its management mechanisms to ensure the sustainability of local budgets and interregional financial equality is substantiated.

Key words: tax potential, regional fiscal policy, interbudgetary relations, tax burden, financial resource, tax policy.

1. Kirish

Bugungi kunda hududiy soliq salohiyatini innovatsion rivojlanish sharoitida asoslab berish zarurati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat iqtisodiy siyosatining zamonaviy bosqichida soliq resurslaridan oqilona foydalanish, ularni hududlar kesimida tahlil qilish va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish

dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, mamlakat innovatsion rivojlanish yo'liga o'tayotgan bir davrda, hududiy soliq salohiyatining o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish ehtiyoji sezilarli darajada ortib bormoqda.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasidagi investitsion dasturlarda belgilangan chora-tadbirlarni moliyaviy resurslar ta'minlashda byudjet soliqli tushumlari asosiy manba hisoblandi. Soliqlar iqtisodiyotni liberalizatsiyalashuvi va biznes yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda hamda mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligiga erishish bilan bog'liq muammolarning echimida soliqlar ahamiyati beqiyosdir.

Soliq potentsiali hududning iqtisodiy tuzilishi va soliq solinadigan resurslar bilan ta'minlanishi bilan tavsiflanadi, bu soliq solish bazalari bilan belgilanadi. Soliq tushumlari soliq potentsialining realizatsiya qilingan qismi sifatida qaraladi. Hududning soliq potentsiali darajasining yuqori bo'lishi, uning byudjet sohasidagi moliyaviy mustaqilligi va belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirishda o'z manbalari mavjudligini anglatadi. Hududlarning soliq potentsialini o'sishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi farqlanishni pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjetiga soliq va to'lovlar tushumi prognozini ishlab chiqish, mahalliy byudjetlarga ajratiladigan transfertlar miqdorini aniq o'rnatish va fiskal risklar darajasini aniqlashda soliq potentsialini baholash dolzarb masalalardan biridir.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ilmiy tadqiqotlarda soliq salohiyatini o'rganish ko'pincha byudjetlararo munosabatlar, alohida hududlarning soliq tushumlari va ularni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bu yo'naliishdagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega, chunki aynan soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Shu bois, soliq salohiyatini chuqur va kompleks o'rganish orqali nafaqat hududiy moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyati ham vujudga keladi.

Ilmiy adabiyotlarga "soliq potensiali" tushunchasi 1980-1999 yillarda kanadalik va amerikalik iqtisodchi va moliyachilar tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, u hozirda aksariyat davlatlarning soliq amaliyotida va qonuniyatlarda aks ettirilgan. Tadqiqot natijalariga muvofiq, soliq potensiali davlat soliq stavkalarini yagona tizimini qo'llashda soliqli daromadlar miqdorini ifodalaydi. Ammo uning mazmun-mohiyati hanuzgacha mavhum bo'lib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Gorskiy I.V. "Soliq potensiali – soliq tizimining muayyan sub'ekti uchun aniq sharoitlarda soliq yig'imlarining optimal miqdorini (optimal soliq yukini) ifodalovchi mavhum moliyaviy kategoriyadir" [1] deb atroficha fikr bildirgan.

Lyatina E.V. "Soliq potensiali – mamlakat yoki hudud iqtisodiyoti holatini sifat tavsifini beradigan va iqtisodiy majmua doirasida mavjud bo'lgan va o'zaro harakat qiladigan manbalar va ob'ektlarni soliqqa tortish sharoitida ma'lum fiskal siyosatni qo'llashda o'zgaradigan hisob-kitoblar tizimidir" [2], deb talqin etsa, unda Mayburov I.A. soliq potensialiga soliq to'lovchilar xatti-harakatlarini hisobga olgan holda amaldagi qonunchilik va soliq ma'muriyatchiligi sharoitida moliyaviy resurslarga ega barcha darajadagi byudjetning soliq daromadlarini maksimalligini ta'minlash potensial qobiliyati deb qaraydi [3].

Haqiqatdan yig‘ilgan pul to‘lovlari yig‘indisi bo‘yicha hududning soliq potensialini baholash noto‘g‘ri, chunki amalda mintaqada yig‘ilgan soliqlar va byudjet daromadlarini shakllantirish potensiali o‘rtasida tafovut mavjud. Hududlarda soliq potensiali bilan yig‘iladigan soliqlar turlicha bo‘lishi mumkin, chunki soliqqa tortiladigan baza miqdoriga soliq organlari ish faoliyati natijaviyligi va soliq to‘lovchilarning soliq intizomiga rioya etish darajasi kabi omillar ta’sir etishi mumkin [4].

O‘z vaqtida L. Alfirman stoxastik chegaralar regression tahlili natijasida olingan soliq tushumlarining prognoz miqdorini ajratib olishga harakat qilib “soliq sig‘imi” tushunchasini izohlashga uringan va “soliq potensiali” va “soliq sig‘imi”ni alohida qo‘llashni taklif etgan. Ammo ushbu tushuncha ham moliyaviy resurslarni tashkil etish tushunchasi bilan birday ifodalangan [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, soliq potensiali soliq to‘lov qobiliyatining eng muhim jihatlaridan biri sanaladi va ilmiy adabiyotlarda soliq potensiali tushunchasi keng tarqalgan byudjetning soliqli daromadlari bilan ham bir qatorda qo‘llaniladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida soliq salohiyatini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

4. Tahlil va natijalar

Hududiy soliq salohiyatining o‘sish dinamikasini aniqlash, mavjud zaxiralarni safarbar qilish, soliq bazasini kengaytirish, zamonaviy soliq boshqaruvi va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uni yanada samarali shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida mahalliy budgetlar barqarorligini ta‘minlash va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda soliq salohiyati ko‘pincha faqatgina amalda hisoblab chiqilgan yoki to‘langan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlari yig‘indisi sifatida qaraladi. Bu hisob-kitoblar soliq stavkalari, amaldagi imtiyozlar va boshqa fiskal omillarni inobatga olgan holda yuritiladi. Biroq soliq salohiyatining asl mohiyati bundan ancha kengroq bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mazkur to‘lovlarini amalga oshirish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishi kerak.

Soliq majburiyatlarini xo‘jalik faoliyatining umumiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘lovchi asosiy ko‘rsatkich bu — soliq yukidir. Soliq yuki to‘langan soliqlar summasining ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan tushumga (ya’ni, daromadga) nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich korxona faoliyatining fiskal bosimini tahlil qilish, ularning soliqga layoqatlilik darajasini baholash imkonini beradi.

Soliq salohiyatini baholash xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarining qanchalik qismini soliqlar va yig‘imlar uchun yo‘naltirish imkoniyatiga ega ekanligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning soliq strategiyasini shakllantirish, faoliyatini rejalashtirish va budget oldidagi majburiyatlarini barqaror bajarish imkonini yaratadi.

Yuqori soliq salohiyatiga ega bo‘lgan subyektlar ko‘proq moliyaviy zaxiralarga ega bo‘lib, ular investitsiyalar jalb qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi

texnologiyalarni joriy etish va bozorda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, bunday subyektlar iqtisodiy beqarorlik yoki moliyaviy inqiroz davrlarida ham barqarorlikni saqlab qola oladilar.

Aksincha, past soliq salohiyatiga ega xo'jalik subyektlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi, o'sish sur'atlarini pasaytirishi va soliq majburiyatlarini to'liq bajara olmasligi mumkin. Bu holat esa nafaqat alohida subyektlar, balki umuman mamlakat budgetining barqarorligi va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy dasturlar hamda infratuzilma loyihibalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli soliq salohiyatini chuqur va tizimli baholash nafaqat fiskal siyosatni takomillashtirish, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va hududlararo moliyaviy tenglikka erishish yo'lida muhim vosita sanaladi.

Soliq salohiyatini aniq va asosli baholash, shuningdek soliq yukini tahlil qilishdan avval, xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasini, ya'ni uning iqtisodiy salohiyatini chuqur o'rganish zarur. Iqtisodiy salohiyat korxonaning ishlab chiqarish quvvati, resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyati va moliyaviy barqarorligini aks ettiruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida fiskal siyosatning mexanizmlari va vositalarini takomillashtirish butun mamlakat miqyosida olib borilishi barbarida, hududiy darajada, ya'ni viloyatlar kesimida ham amalga oshirilishi lozim. Bu mezoyondashuv mezonida soliq siyosatini shakllantirish, hududlararo farqlarni yumshatish va soliq resurslaridan samarali foydalanishga erishish imkonini beradi.

Soliq siyosatini takomillashtirishga doir strategik yondashuvlar regional fiskal salohiyatni kuchaytirishga, ya'ni hududiy birliklarning soliq to'lash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi kerak. Bu yondashuv orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash va mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Hududlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan soliq vositalari — bu byudjetni to'ldiruvchi, rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi fiskal mexanizmlar tizimi bo'lib, ular orqali mahalliy iqtisodiy o'sishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va xohlanmagan iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Agar soliq siyosatining hududiy xususiyatlari yetaricha e'tiborga olinmasa, bu ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuviga, ya'ni nojo'ya iqtisodiy divergentsiyaga olib kelishi mumkin. Bunday holat esa uzoq muddatda jiddiy salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni yuzaga chiqaradi.

Shu sababli, fiskal strategiyaning zamonaviy talablarga mos shakllantirilishi va regional soliq salohiyatining chuqur baholanishi, bir tomonidan, byudjet siyosatini yanada maqsadli qilishga, ikkinchi tomonidan esa, iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlash orqali barcha hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti daromad bazasini shakllantirishda real restrukturizatsiya va xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish strategiyasi — zamonaviy fiskal siyosatning muhim yo'nalihidir. Biroq bu maqsadlarga erishishda hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy resurslar iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida asosiy harakatlantiruvchi kuch sanaladi. Ayniqsa, hududiy darajada, ya'ni mahalliy byudjetlar tizimida ularning yetishmovchiligi yanada keskinroq seziladi. Bunga sabab sifatida bir tomondan, hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklar, iqtisodiy va ijtimoiy disbalanslar, demografik bosim va ekologik muammolarning murakkablashuvi ko'rsatiladi. Bu kabi omillar mahalliy byudjetlarning barqaror moliyaviy bazasini shakllantirishni murakkablashtiradi.

Ikkinchisi tomondan esa, hozirgi davrda hududlar moliyaviy resurslar, soliq tushumlari va byudjet mablag'larini jalg etish borasida o'zaro raqobatga kirishgan. Bu holat fiskal resurslar uchun raqobat muhitining kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda nafaqat samarali soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish, balki ularni amalga oshirishning instituttsional va tashkiliy asoslarini mustahkamlash zarur.

Shu munosabat bilan, nafaqat moliyaviy va soliq munosabatlarining samarador uslublarini izlash, balki bu tizimlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sharoitlar, mexanizmlar va vositalarni aniqlash, ularni o'zaro uyg'unlashtirib kompleks yondashuvda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday tizimli yondashuv orqali:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq salohiyatini kengaytirish,
- ularning soliqqa tortiladigan bazasini oshirish,
- soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkonini yaratish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda subyektlarning manfaatlariga mos keluvchi soliq muhiti va ijobiy biznes muhitini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarini soliq tizimiga ixtiyoriy ravishda jalg etadi, ularning ochiq va halol ishlashiga rag'batlantiradi, iqtisodiy barqarorlik va fiskal intizomni mustahkamlaydi.

Soliq salohiyatini shakllantirish jarayonida asosiy manba sifatida hududlarning mavjud tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslari qaraladi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan yirik hududlarda soliqqa tortish ob'ektarining ko'pligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning zich joylashuvi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borishi soliq tushumlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Demakki, resurslarga boy hududlarda soliq bazasining shakllanish salohiyati ham yuqori bo'ladi.

Bunday sharoitda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yig'imlar, odatda, aynan ana shunday ulkan va iqtisodiy faol hududlarda ko'proq miqdorda amalgta oshiriladi. Shu sababli, soliq siyosati — soliq salohiyati hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim tarkibiy omil hisoblanadi. Uni soliq salohiyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tashqi ta'sir omillari sirasiga kiritish — ilmiy va amaliy jihatdan asosli yondashuvdir.

Soliq siyosati mohiyatan davlat tomonidan olib boriladigan moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlar tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi — mamlakat va jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari ehtiyojlarini moliyaviy resurslar orqali qondirish, ularni adolatli tarzda taqsimlash va qayta taqsimlash hisoblanadi. Bunda davlat soliq tizimi orqali jamg'arilgan resurslar faqat byudjetni to'ldirish uchun emas, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalg qilish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish kabi keng ko'lamli maqsadlarni ham ko'zda tutadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, soliq siyosatining taktika va strategiyasi iqtisodiyotda mavjud bo'lgan potensial manbalarni aniqlash, ularni soliqqa tortish bazasiga jalb etish, rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali milliy boylikdan oqilona foydalanish va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan adolatli fiskal muhitni shakllantirishni ta'minlashi lozim.

Bundan tashqari, soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, hududiy tenglikni saqlash va davlat bilan jamiyat o'rtaida o'zaro ishonchli moliyaviy aloqalarni kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. U soliq salohiyatini nafaqat saqlab qolish, balki uni dinamik ravishda oshirib borishning kafolatidir.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy mustaqillik sharoitida har bir davlat o'zining tarixiy, geografik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xususiyatlariga asoslanib, takrorlanmas milliy soliq siyosatini shakllantirmoqda. Bu siyosat nafaqat amaldagi qonunchilik me'yorlariga amal qilishni, balki ularni zamon talablari asosida doimiy takomillashtirib borishni ham nazarda tutadi. Zero, soliq siyosatining muvaffaqiyati — uning statik emas, balki dinamik va moslashuvchan bo'lishiga bevosita bog'liq.

Olib borilgan ilmiy o'rganishlar va amaliy tadqiqotlar hududiy soliq salohiyatiga oid turli-tuman yondashuvlarning mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa ushbu iqtisodiy kategoriya mohiyatini har xil kontekstda tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuvlarni quyidagicha guruhlashgan:

1. Ressursli va aralash yondashuvlar: Mazkur yondashuv tarafdoirlari hududiy soliq salohiyatini keng va tor ma'noda baholashadi. Keng ma'noda — bu hududdagi soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan barcha resurslar miqdorini anglatadi. Tor ma'noda esa — bu real sharoitda erishilishi mumkin bo'lgan maksimal soliq tushumlari ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Ikkala holatda ham iqtisodiy zaxiralar va fiskal imkoniyatlar hisobga olinadi.

2. Soliq salohiyatining uch bosqichli tasnifi: Bu yondashuvga ko'ra, soliq salohiyati quyidagi ko'rinishlarda tahlil qilinadi:

- Strategik salohiyat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov qobiliyatiga asoslangan holda jamiyat ehtiyojlarini qondirish darajasi.

- Taktik salohiyat — soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlariga asoslangan baholash.

- Fiskal salohiyat — byudjet xarajatlarini imtiyozlar va boshqa cheklovlarni hisobga olgan holda soliqlar orqali qoplash imkoniyati.

3. Byudjet tizimi darajalari bo'yicha taqsimlangan soliq salohiyati:

Ushbu yondashuvga ko'ra, soliq tushumlarini markaziy va mahalliy darajadagi byudjet tizimlariga nisbatan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, ayniqsa, mahalliy soliq salohiyatining alohida ajratilishi, uni byudjetlararo munosabatlar tizimida mustaqil tahlil qilinishiga imkon yaratadi.

4. Hududiy soliq salohiyatining real bajarilishiga asoslangan yondashuv:

- Bu yondashuvda soliq salohiyati ikki asosiy ko'rinishda ko'rib chiqiladi:

- Nominal soliq salohiyati — mavjud resurslardan to'liq foydalanilgan holda erishilishi mumkin bo'lgan nazariy daromadlar hajmi.

Amalga oshirilgan (real) soliq salohiyati — real sharoitda jamg'arilgan va byudjetga tushgan soliqlar miqdori.

Ushbu tasniflar va yondashuvlar orqali hududning fiskal imkoniyatlarini to'liq baholash, zaxiralarni aniqlash, soliq siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin.

5. Xulosa va takliflar

Hududiy soliq salohiyatini baholashda amalga oshirilgan (real) soliq salohiyati ko'rsatkichining nominal soliq salohiyatiga nisbati alohida ahamiyatga ega. Ushbu nisbat hududning soliq salohiyatini real tarzda nechog'li ro'yobga chiqarayotganligini, ya'ni soliq salohiyatini amalga oshirish darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich byudjet tizimi doirasida soliq tushumlarini to'plash imkoniyatlarining real ishga solinish darajasini belgilaydi va takror ishlab chiqarish salohiyatining fiskal jihatini tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur ko'rsatkich bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajaradi:

- Hududiy soliq organlari faoliyatining samaradorligini baholash imkonini beradi;
- Yashirin iqtisodiyotning kengayish darajasini aniqlashda bilvosita indikator bo'lib xizmat qiladi;
- Hududdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibiy tuzilmasini va ularning soliqqa jalg etilish samaradorligini tuzatish choralarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, hududiy soliq salohiyati tushunchasiga oid mavjud resursli, fiskal va aralash yondashuvlar ichida, ayniqsa fiskal va aralash yondashuvlar O'zbekiston sharoitidagi amaldagi zamonaviy soliq tizimi modeliga eng yaqin mos keladi, deb aytish mumkin.

Biroq bizning fikrimizcha, bu yondashuvlar bir qadar to'liq bo'lmay, hududiy soliq salohiyatining institutsional xususiyatlarini ham hisobga olgan holda yangicha yondashuv zarur. Chunki soliq salohiyati faqat statistik daromadlar yoki iqtisodiy resurslar bilan emas, balki amaldagi qonunchilik, fiskal siyosatning dinamikasi va soliq boshqaruvi institutlarining samaradorligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Shunday ekan, soliq salohiyatini tahlil qilishda uni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki uni qanday sharoitda, qanday mexanizmlar orqali va qanday institutsional ta'sirlar asosida boshqarilishi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish zarur.

Hududiy soliq salohiyatini chuqur va tizimli baholash quyidagilar uchun dolzarb:

- mamlakat miqyosida byudjetlararo munosabatlarning samarali tizimini shakllantirish;
- iqtisodiy jihatdan sust rivojlanayotgan hududlarda mahalliy byudjet resurslari yetarligini ta'minlovchi fiskal siyosatni amalga oshirish;
- territorial fiskal tenglikni saqlab qolish va regionlar o'rtasida barqaror rivojlanish muvozanatini ta'minlash.

To'g'ri, hozirgi vaqtida mamlakat hududlarining soliq salohiyatini baholashda umumiq qabul qilingan yagona uslubiyat ishlab chiqilmagan. Biroq shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa vakolatli davlat organlari o'z funksional vazifalari doirasida turli yondashuvlar asosida soliq salohiyatini baholab borish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bois, ilmiy asoslangan, tizimli, institutsional va raqamli yondashuvlar birgalikda qo'llanilsa, hududiy soliq salohiyatining yanada aniqroq va amaliy natijalarga yo'naltirilgan tahliliga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Горский И.В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы. 1999. № 6.
2. Лятина Е.В. Формирование и оценка налогового потенциала в России: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. эконом. наук – URL: www.seun.ru/download/avtoreferat/lyatina.doc – с.6
3. Майбуров, И.А. Налоговый менеджмент. Продвинутый курс [Электронный ресурс]: учебник для магистрантов, обучающихся по программам направления «Финансы и кредит»/ И.А. Майбуров [и др.]. – Электрон. текстовые данные. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – 559 с.
4. Пелевин И.Ю. Анализ концептуальных подходов и методов оценки налогового потенциала регионов. Статистика и Экономика. 2014; (5): 70-72. <https://doi.org/10.21686/2500-3925-2014-5-70-72>
5. Alfirman, L. Estimating stochastic frontier tax potential: Can Indonesian local governments increase tax revenues under decentralization / L. Alfirman //Department of Economics, University of Colorado at Boulder, Colorado. Working Paper. – 2003. – №. 03-19.– 37 p.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

